



# 62-


mavzu

## AMALIY MASHG'ULOT


### Yorug'likning yassi ko'zgudan qaytishi



a)



b)



c)

5.24-rasm

**Maqsad:** yassi ko'zgu yordamida yorug'likning qaytishini o'rganish.

**Kerakli jihozlar:** ko'zgu, yorug'lik manbai, tirqishli tekislik, to'siq, transportir, qog'oz va qalam.

#### Ishni bajarish tartibi

1. Yorug'lik manbai qarshisiga tirqishli tekislik to'siqni va oq qog'ozni qo'ying. Oq qog'oz ustiga yassi ko'zguni 5.24 a-rasmda ko'rsatilgandek joylashtiring.

2. S yorug'lik manбайдan tirqishga tomon qarab yorug'lik nurini yo'naltiring. Qog'oz sirtida nur yo'lini kuzating.

3. Yorug'lik nuri ko'zgudan qaytgan joyni aniqlang va uni qalam bilan belgilab oling.

4. Ko'zguga tushayotgan nur va ko'zgudan qaytgan nur yo'lida bir nechta nuqtalarni belgilab oling. So'ng bu nuqtalarni tutashtirib, nur yo'lini chizing.

5. Ko'zguga tushayotgan nurni A, nurning tushish nuqtasini B, qaytgan yorug'lik nurini C deb belgilang. Nur tushgan (B) nuqtaga, ya'ni ko'zgu tekisligiga perpendikulyar o'tkazing (5.24 b-rasm).

6. Transportir yordamida nurning tushish burchagi va qaytish burchagini o'lchang.

7. Ko'zguga tushayotgan nurning tushish burchagini o'zgartirib, tajribani takrorlang (5.24 c-rasm).

O'tkazilgan tajribalar asosida o'z xulosangizni yozing.